

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

8-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 8 (5) – 2025*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

## **ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Baxranov Sherzod*

O‘ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O‘RNI .....	10-16
---	-------

*Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna*

MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARI .....	17-21
--	-------

*Sattarova Marhabo Mamatovna*

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARIGA TA‘SIRI .....	22-30
--	-------

*Raxmatov Mirjon*

BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN .....	31-38
---	-------

*To‘xtasinov Mira‘zam*

SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI .....	39-42
---	-------

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Kuliboyev Azamat Shonazarovich*

DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	43-48
---	-------

*Azgarov Abdumutalib*

INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA QO‘LLANILISHI HOLATI TAHLILI .....	49-56
---	-------

*Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda*

IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE: INTERNATIONAL EXPERIENCE .....	57-60
--	-------

*Otabekov Javdod*

GO‘SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA “AQLLI QISHLOQ XO‘JALIGI” IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI .....	61-68
--	-------

*Navruzov Dilshod Ismatullayevich*

AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA‘MINLASH .....	69-74
--	-------

*Uralov Temur Boxodir o‘g‘li*

ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI HUJJATLASHTIRISH VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	75-81
--	-------

*Samandarov Og‘abek*

ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING AHAMIYATI .....	82-86
---	-------

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

- Yuldashev Rustam Daniyrovich*  
YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT  
RIVOJLANISHIDAGI O'RNI ..... 87-93
- Adilov Zafar Yunusovich*  
ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L ..... 94-98
- Berdikulova Surayyo Aslamovna*  
IJTIMOIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI ..... 99-104
- Taniqulov Jonibek Ashirkulovich*  
ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA'LIM MADANIYATI ..... 105-113
- Yarbaev Xasan Xazratqulovich*  
JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH:  
MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL ..... 114-118
- Maxsudjonov Kamronjon*  
MA'RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIY MADANIYATIGA  
TA'SIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI ..... 119-123
- Qo'chqarov Oybek G'ulomovich*  
INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI:  
IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV ..... 124-128
- Otaqulov Elyor Madiyrovich*  
EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI ..... 129-136
- Mamatqulov Rashid Pazilbekovich*  
TUSHUNCHA USTIDA MANTIQUIY AMALLAR ..... 137-141

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

- Niyazov Ravshan Turakulovich*  
SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR  
XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI ..... 142-148
- Yunusova Xilola Ravshan qizi*  
KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI  
"V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA ..... 149-154
- Absalamova Gulmira Sharifovna*  
LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIY TERMINLARNING  
NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA ..... 155-158
- Dadajanova Aziza Karimullayevna*  
THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION:  
A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE ..... 159-170
- Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna*  
YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI  
RAMZIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA)  
ERTAGI MISOLIDA ..... 171-175
- Babajanova Iqbol Salomaddinovna*  
SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI ..... 176-180

<i>To'xtayeva Sarvinoz</i> DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI .....	181-184
<i>Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi</i> TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM MANBALARI QIYOSI .....	185-189
<i>Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna</i> CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY .....	190-195

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>O'rinboyev Rustamjon</i> A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA .....	196-206
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI .....	207-212
<i>G'ofurova Dilafuz</i> AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR .....	213-218
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI .....	219-223
<i>Juraeva Asal</i> OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN .....	224-228
<i>Ходжаева Шурин</i> ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ .....	229-239
<i>Imomniyozov Doniyorbek</i> SUN'IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK: IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILY YONDASHUVLAR .....	240-250
<i>Asadov Shahridin Faxriddinovich</i> XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI: SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN .....	251-254
<i>Суннатиллаева Сарвиноз</i> АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА .....	255-262
<i>Anarbayev Eldor</i> KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....	263-269
<i>Ibrohimov Azimjon</i> KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK .....	270-278

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Qurbonov G'ulomjon G'afurovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI .....	279-285
--	---------



<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i> TRANSFORMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI .....	286-293
<i>Muxammadjonov Muslimbek</i> OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...	294-302
<i>Khabibullaeva Dilshoda</i> FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING CLASSROOMS IN UZBEKISTAN .....	303-309
<i>Berdiyorova Nilufar Berdiyori qizi</i> INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI .....	310-314
<i>Hamidov Sherhali Shirinovich</i> BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI .....	315-320
<i>Sattoriy Shohruh</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	321-325
<i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i> TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI .....	326-331
<i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i> "NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI .....	332-336
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE "DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE "INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT .....	337-341

**Received:** 20 July 2025  
**Accepted:** 5 August 2025  
**Published:** 10 August 2025

*Article / Original Paper*

## **INTEGRATION OF EDUCATION AND VOCATIONAL TRAINING IN THE ERA OF INDUSTRY 4.0: A SOCIO-PHILOSOPHICAL APPROACH**

**Kochkarov Oybek Gulomovich**

**Independent researcher at Fergana State University**

**Abstract.** This article analyzes the integration of the education and vocational training systems in the context of the Fourth Industrial Revolution — Industry 4.0 — from a socio-philosophical perspective. It substantiates the need to reconsider the content and methodology of vocational education in light of digital technologies, automation, and the evolving demands of the labor market. Particular attention is given to dual education, the development of human capital, and the individual's responsible engagement with labor in modern society.

**Keywords:** industry 4.0, vocational education, integration, digital technologies, labor market, dual education, philosophical approach, human capital.

## **INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI: IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV**

**Qo'chqarov Oybek G'ulomovich**

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: [oykuchkarov@mail.ru](mailto:oykuchkarov@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sanoatning to'rtinchi inqilobi – Industriya 4.0 sharoitida ta'lim va kasb-hunar tizimining o'zaro integratsiyasi ijtimoiy va falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga mos holda, kasbiy ta'limning mazmuni va metodologiyasini qayta ko'rib chiqish zarurati asoslab beriladi. Dual ta'lim, inson resurslarini rivojlantirish, va zamonaviy jamiyatda shaxsning mehnatga nisbatan mas'uliyatli yondashuvi asosiy mavzular sifatida ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** industriya 4.0, kasb-hunar ta'limi, integratsiya, raqamli texnologiyalar, mehnat bozori, dual ta'lim, falsafiy yondashuv, inson kapitali.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N19>

### **KIRISH**

XXI asr boshidan beri insoniyat tarixida ilgari hech qachon ko'rilmagan darajada texnologik taraqqiyotga guvoh bo'lmoqda. Raqamli vositalar, sun'iy aql, katta hajmdagi ma'lumotlar, kiberfizik tizimlar va tarmoq iqtisodiyoti asosida vujudga kelayotgan Industriya 4.0 tushunchasi sanoat, iqtisodiyot, ijtimoiy munosabatlar va ta'lim sohalarini tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, xizmat ko'rsatish sohasida sun'iy aql imkoniyatlari kengaymoqda, bilimga asoslangan iqtisodiyot esa mehnat bozorining yangi shaklini yaratmoqda [1].

Bugungi sharoitda ta'lim tizimi, xususan, kasb-hunar va o'rta maxsus ta'lim, jamiyatning yangi talablariga moslashishi kerak. U inson kapitalini shakllantirib, raqobatbardosh, yangicha fikrlaydigan va ijtimoiy mas'uliyatni his qiladigan shaxslarni tayyorlashda bosh rol o'ynashi

shart. Lekin amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlarda, xususan, O'zbekistonda ham kasb-hunar ta'limi ko'pincha mehnat bozorining talablariga yetarlicha javob bera olmayapti. Natijada, malakali kadrlar yetishmasligi, yoshlar orasida ishsizlik va ijtimoiy nomutanosibliklar yuzaga kelishi mumkin.

Industriya 4.0 davrida ta'limga yondashuvni yangilash – bu faqat texnik yoki metodik masala emas. Bu insonni mehnat, texnologiya va jamiyat bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan chuqur, falsafiy jarayon. Ushbu o'zgarishlarda ta'limning eng asosiy mohiyati – shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning kasbiy salohiyatini jamiyat manfaati uchun ishga solish, eng muhimi, insonni “texnologik muhitda ijtimoiy subyekt” sifatida shakllantirish masalasi yanada dolzarblashmoqda [3].

Ushbu maqolada kasb-hunar va o'rta maxsus ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi chuqur bog'liqlik, ayniqsa dual ta'lim modellari orqali amalga oshirilayotgan integratsiya keng ko'lamda yoritiladi. Shu bilan birga, bu jarayonning ijtimoiy va falsafiy ildizlari ham batafsil tahlil qilinadi. Diqqat markazida – shaxs va jamiyatning o'zaro munosabatlari, insonning mehnat maydonidagi o'rni, texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi hamda ijtimoiy identifikatsiyasining shakllanishi kabi masalalar turadi.

Shunday qilib, ta'lim va kasb-hunar tizimini nafaqat iqtisodiy taraqqiyotning, balki insoniy qadriyatlar, ma'naviy poydevor va ijtimoiy barqarorlikning asosiy ustunlaridan biri sifatida ko'rish zarur. Shu nuqtai nazardan, maqola ta'lim sohasidagi o'zgarishlarni ijtimoiy va falsafiy kontekstda chuqurroq anglashga intiladi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

So'nggi yillarda Industriya 4.0 tushunchasi jahon ilmiy va amaliy doiralarda keng muhokama qilinayotgan dolzarb mavzulardan biri bo'lib qoldi. Ayniqsa, bu atama 2011-yilda Germaniyada paydo bo'lib, hozirda global texnologik taraqqiyotning bosh yo'nalishiga aylangan. Germaniyalik olim Klaus Shvab o'zining mashhur “The Fourth Industrial Revolution” (“To'rtinchi sanoat inqilobi”) asarida bu inqilobni nafaqat texnologik, balki ijtimoiy, madaniy va gumanitar o'zgarishlarning manbai deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, bu davrda insoniyat o'z faoliyati va yashash tarzini butunlay qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lmoqda. [1; 8].

Bugungi kunda ta'lim sohasiga ta'sir etayotgan o'zgarishlar bevosita yangi ishlab chiqarish jarayonlari, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish bilan bog'liq. Inson kapitaliga bo'lgan talab tubdan o'zgarib, endilikda kasb-hunar va o'rta maxsus ta'lim tizimi faqat nazariy bilim berishdan iborat emas. U mehnat bozorining yangi talablari asosida, innovatsion yondashuvlarga ochiq, hamda ijtimoiy mas'uliyatni anglaydigan mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilishi zarur.

Xalqaro tajribalar, xususan Germaniya, Avstriya va Shveysariya kabi mamlakatlarda keng tarqalgan dual ta'lim modeli bunga yaxshi misol bo'la oladi. Bu model nazariy bilimlar bilan amaliy ishlarni birlashtirib, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishda samarali yechim sifatida ko'rilmogda[10; 7]. O'zbekiston ham bu yo'nalishda qator islohotlarni amalga oshirmogda. Jumladan, “Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” (PQ-5812, 2019-yil) dual ta'lim elementlarini joriy qilish va ta'lim bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlashni ko'zda tutgan[5].

O'zbekistonlik olimlar, xususan A.Jo'rayev, M.Yuldashev va N.Toshxo'jayev kabi mutaxassislar kasb-hunar ta'limini yangilash borasida nazariy asoslar yaratishda faol ishtirok etishmogda. Mahalliy ilm-fan vakillari bu muhim masalaga chuqur e'tibor qaratib, o'z

qarashlarini ilgari surishmoqda. Ayniqsa, N.Toshxo‘jayev milliy kasb-hunar ta‘lim modelini shakllantirishda ijtimoiy ehtiyojlar, mehnat bozori va madaniy qadriyatlarning uyg‘unligi katta ahamiyat kasb etishini ta‘kidlaydi[3]. A. Jo‘rayev esa kasbiy identifikatsiya jarayonida “ta‘lim falsafasining gumanistik negizlari”ni chuqur tahlil qiladi va ta‘lim tizimini “shaxsni mehnatga tayyorlovchi ijtimoiy institut” deb ataydi[2].

Ken Robinson esa ta‘lim tizimini innovatsion fikrlashga yo‘naltirish zarurati haqida so‘z yuritadi[4].

Ushbu maqolada metodologiya sifatida bir nechta yondashuv birlashtirilgan. Birinchi o‘rinda, tizimli yondashuv ta‘lim bilan mehnat bozori o‘rtasidagi aloqani ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy kontekstda chuqurroq anglashga yordam beradi. Ikkinchidan, ijtimoiy-falsafiy yondashuv insonning texnologiyalar dunyosida o‘z o‘rnini topish, unga moslashish va faollashish jarayonlarini ochib beradi. Uchinchidan, komparativ tahlil orqali xalqaro tajribalar O‘zbekiston sharoitida solishtiriladi, bu esa imkoniyatlar va to‘siqlarni aniq ko‘rishga imkon beradi. Shu bilan birga, intervyu, ochiq so‘rov va kontent tahlili kabi sifatga yo‘naltirilgan metodlar kasb-hunar ta‘limi muassasalari, ish beruvchilar va talabalar o‘rtasidagi bog‘lanishni yanada teran tahlil qilishga yordam beradi. Bu esa nazariyani amaliyot bilan boyitish imkonini beradi.

Natijada, ta‘lim bilan mehnat bozori o‘rtasidagi bog‘lanish nafaqat tashkiliy islohotlar yig‘indisi, balki inson va jamiyat o‘rtasidagi ma‘naviy va ijtimoiy uyg‘unlik tamoyillariga asoslangan falsafiy jarayon sifatida ko‘riladi. Bu qarashlar ta‘lim siyosatini yangilash, uni yangi davr talablari bilan moslashtirish uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Kasb-hunar ta‘limining o‘rni qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Raqamli iqtisodiyotda eski kasblar asta-sekin yo‘qolib borar ekan, yangi kasblar paydo bo‘lmoqda, bu esa ta‘lim dasturlarini o‘zgartirishga majbur qiladi. Endilikda har bir mutaxassis nafaqat o‘z sohasini bilishi, balki texnologiyalarni tushunishi, muammolarni tahlil qila olishi, moslashuvchan va jamiyatga javobgar bo‘lishi lozim. Afsuski, ko‘plab ta‘lim muassasalari hali ham bozor ehtiyojlariga to‘liq javob bermaydigan kadrlar tayyorlamoqda. Natijada, ishsizlik, ijtimoiy norozilik va mehnat resurslarining behuda sarfi ortib bormoqda.

Ta‘lim – bu faqat bilim berish jarayoni emas, balki insonni jamiyatda faol qatnashuvchi shaxsga aylantirishdir. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, ta‘limning o‘zgarishi insonning erkinlikka intilishi, ma‘naviy yetukligi va texnologiyaga mas‘ul yondashuvi bilan chambarchas bog‘liq. Ta‘lim bilan texnologiya bir-birini inkor qilmasligi, aksincha, uyg‘unlashib yangi turdagi kasbiy va ijtimoiy o‘zligini shakllantirishi kerak[9].

### **NATIJA VA MUHOKAMA**

Zamonaviy dunyo misli ko‘rinmagan tezlik bilan o‘zgarib bormoqda, va bu o‘zgarishlarning poydevorida aynan texnologiyalar turibdi. Industriya 4.0 davrida ta‘lim tizimi ham yangicha talablarga yuz tutmoqda. Endi ta‘lim faqat bilim berish emas, balki odamni har tomonlama rivojlantirish, unga yangi sharoitlarga moslashishni o‘rgatish vazifasini olmoqda.

Ma‘lumot bilan amaliy ko‘nikmalar ajralmas bo‘lib, kasb-hunar ta‘limi o‘z shaklini yangilayapti. Texnologiyalar ta‘lim jarayonini yanada jonli, interaktiv qiladi, o‘rganuvchilar o‘z qobiliyatlari va kasbiy yo‘nalishini aniqroq anglay boshlaydi. Shu yo‘l bilan nafaqat professional malaka, balki ijtimoiy mas‘uliyat va o‘zini anglash tuyg‘usi ham rivojlanadi.

Jamiyat bilan texnologiya o‘rtasidagi bu o‘ziga xos bog‘liqlik ta‘lim tizimini murakkabroq, lekin boy va ko‘p qirrali qiladi. Ijtimoiy-falsafiy yondashuv ta‘limni faqat kasbiy

tayyorgarlik vositasi emas, balki insonning jamiyatdagi o'rnini topish va uni jamiyat bilan uyg'unlashtirish yo'li sifatida ko'radi.

Texnologiyalar esa oddiy vosita bo'lib qolmay, aksincha, odamning o'zligini anglashida, jamiyatga nisbatan mas'uliyatini his qilishida yordam beruvchi kuchga aylanmoqda. Shu sababli dual ta'lim va kasb-hunar tizimining yangi modeli nafaqat ishchi kuchini tayyorlabgina qolmay, balki jamiyatning ruhiy va madaniy rivojiga ham hissa qo'shadi.

Shunday qilib, sanoat va ta'lim integratsiyasi faqat texnik masala emas, balki chuqur ijtimoiy va falsafiy jarayon sifatida qaralishi kerak. Bu tamoyilni anglaganimizda, biz zamonaviy davrga mos, bardoshli va o'zgarishlarga tayyor avlodni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz.

### **XULOSA**

Bugungi kunda butun dunyoda yuz berayotgan texnologik taraqqiyot, xususan Industriya 4.0 deb ataluvchi yangi sanoat inqilobi, ta'lim tizimida tub burilishlarga sabab bo'lmoqda. Raqamlashtirish, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va robototexnika kabi ilg'or texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini, balki odamlarning hayoti, kasb-hunar tizimi hamda ta'lim muassasalarining mazmunini ham tubdan o'zgartirmoqda.

Shu jarayonda kasb-hunar va o'rta maxsus ta'limning o'rni va vazifalari qayta ko'rib chiqilishi, ularni bozor ehtiyojlariga mos ravishda integratsiyalash va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu masala nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va falsafiy jihatdan ham keng yondashuvni talab qiladi.

Ushbu maqola aynan shunday nuqtai nazardan ta'lim bilan kasb-hunar tizimining integratsiyasi, uning ijtimoiy ta'siri va gumanistik-falsafiy asoslarini ochib beradi. Industriya 4.0 sharoitida ta'lim va kasb-hunar tizimlarining o'zgarishi faqat texnik yoki iqtisodiy omillar bilan cheklanmasdan, balki ijtimoiy va falsafiy mezonlar asosida ham amalga oshirilishi zarur.

O'zbekistonning milliy rivojlanish strategiyasi doirasida ta'lim tizimi bozor bilan uyg'unlashgan, zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashgan, insonparvarlik tamoyillariga tayangan tizimga aylanishi lozim. Shu bois:

- Kasb-hunar ta'limi raqamli texnologiyalar asosida yangilanishi muhim;
- Ta'lim tizimi shaxsning ijtimoiy faolligi va axloqiy yetukligini shakllantirishi kerak;
- Falsafa va gumanitar fanlar texnologik ta'limning ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Natijada esa, zamonaviy jamiyat talablari asosida moslashuvchan, mustaqil fikrlay oladigan va ijtimoiy mas'uliyatni his qiluvchi mutaxassislar yetishib chiqadi.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum, 2016.
2. Jo'rayev A. Ta'lim falsafasining gumanistik negizlari // Ta'lim va jamiyat. — 2021. — №3(12). — B. 45–53.
3. Toshxo'jayev N. Kasb-hunar ta'limining milliy modeli va ijtimoiy ehtiyojlar // Ijtimoiy fanlar. — 2020. — №4(5). — B. 112–120.
4. Robinson K. Changing Education Paradigms [Video Lecture]. RSA Animate, 2010.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni davlat dasturi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

7. Bakhshi H., Downing J. M., Osborne M. A., Schneider P. The Future of Skills: Employment in 2030. UK Commission for Employment and Skills, 2017.
8. Schwab K. Shaping the Fourth Industrial Revolution. Currency, 2018.
9. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris, 2019.
10. European Centre for the Development of Vocational Training (Cedefop). The changing nature and role of vocational education and training in Europe. Luxembourg, 2018.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 8 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).